

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Filologiya va ijtimoiy fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Askiya va qiziqchilik san’atini zamonaviy kreativ industriyaga moslashtirish va eksportbop media formatlarini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - askiya va qiziqchilik san’atining zamonaviy media (stand-up, short-video, serial, raqamli kontent) formatlari bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi; - milliy yumor san’atini xalqaro auditoriyaga moslashtirishning ilmiy-amaliy modellari ishlab chiqiladi; - askiya asosida qisqa videolar, sahnaviy formatlar va raqamli shou konsepsiyalari yaratiladi; - kontent ishlab chiqarish, tarqatish va monetizatsiya qilish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi; - eksportbop kontentni ishlab chiqish uchun amaliy tavsiyalar va pilot media mahsulotlar tayyorlanadi Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Madaniyat vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.